



“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

OILA, XOTIN-QIZLAR VA IJTIMOIY HAYOT

e l e k t r o n i l m i y j u r n a l

1/2025

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan
2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat
ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.
“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv”
jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga
oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy
tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

ISSN 9874-4126

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna (Bosh muharrir o'rinbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimqulovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
FARFIYEV Bahromjon Atxamdjanovich – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*
ISHQUVATOV Valiqlul Turdiyevich – *tarix fanlari doktori, professor.*
KARAMYAN Marietta Xachaturovna – *psixologiya fanlari doktori, professor.*
MUSLIMOV Narzulla Alixanovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
NURMATOVA Mukarram Axmedovna – *falsafa fanlari doktori, professor.*
NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*
RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*
SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*
ATAMURATOV Rasuljon Kadirjonovich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*
SODIQOVA Shohida Marhobayevna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
IBRAGIMOV Lutfullo Ziyodullayevich – *geografiya fanlari doktori, dotsent.*
JABBAROV Ulug'bek Abduraxmanovich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*
HOJIYEV Rasulbek Boynazar o'g'li – *falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (Главный редактор) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*
Мусурманова Айниша Мусурмановна (Заместитель главного редактора) – *доктор педагогических наук, профессор.*
Абдураманов Хамид Худайбергенович – *доктор экономических наук, профессор.*
Бегимкулов Узокбой Шоимкулович – *доктор педагогических наук, профессор.*
Фарфиев Бахромжон Аткамджанович – *доктор социологических наук, доцент.*
Ишкuvatov Валикул Турдиевич – *доктор исторических наук, профессор.*
Карамян Мариэтта Хачатуровна – *доктор психологических наук, профессор.*
Муслимов Нарзулла Алиханович – *доктор педагогических наук, профессор.*
Нурматова Мукаррам Ахмедовна – *доктор философских наук, профессор.*
Нарматов Нуриддин Соатмурадович – *доктор юридических наук, профессор.*
Рахманкулова Нилуфар Ходжи-Акбаровна – *доктор юридических наук, доцент.*
Сайдивалиева Хуршида Ходжаикбаровна – *доктор философии юридических наук (PhD).*
Атамуратов Расулжон Кадирджонович – *доктор философии педагогических наук (PhD).*
Содикова Шохида Мархобаевна – *доктор социологических наук, профессор.*
Умирзаков Баходир Хамидович – *доктор экономических наук, профессор.*
Ибрагимов Лутфулло Зиёдуллаевич – *доктор географических наук, доцент.*
Жаббаров Улугбек Абдурахманович – *доктор философии педагогических наук (PhD).*
Ходжиев Расулбек Бойназар оглы – *доктор философии (PhD) по философским наукам.*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna (Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*
Musurmanova Aynisa Musurmanovna (Deputy Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*
Abduramanov Khamid Khudaybergenovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*
Begimkulov Uzoqboy Shoimkhulovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*
Farfiyev Bakhromjon Atkhamdjanovich – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*
Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*
Karamyan Marietta Khachaturovna – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*
Muslimov Narzulla Alikhanovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*
Nurmatova Mukharram Akhmedovna – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*
Narmatov Nuriddin Soatmuradovich – *Doctor of Law Sciences, Professor.*
Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*
Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*
Atamuratov Rasuldjon Kadirdjonovich – *Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).*
Sodikova Shokhida Markhobayevna – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*
Umirzakov Bakhodir Khamidovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Ibragimov Lutfullo Ziyodullayevich – *Doctor of Geographical Sciences, Assistant Professor.*
Djabbarov Ulughbek Abdurakhmanovich – *Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).*
Khodjiev Rasulbek Boynazar ogly – *Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences.*

SOTSILOGIYA

Usmonova R.M. O'zbekistonda xotin-qizlar norasmiy bandligini kamaytirishning iqtisodiy va huquqiy jihatlarining sotsilogik tahlili	4
---	---

JAMIYAT VA OILA

Axunov M.M. Aholi migratsiyasi genezisi va uning nazariy-metodologik asoslari.....	17
Yulchiyeva D. Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyat mohiyati	26
Davlatova H.U. Yoshlar orasida intellektual migratsiya ko'lamini qisqartirish va tartiblash mexanizmlarini takomillashtirish.....	36

IJTIMOY PEDAGOGIKA

Matkarimov A.M. Oilada ta'lim muhitini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlarini	46
Ummatkulova N. Oila va maktab hamkorligida o'smirlarning aqliy rivojlanishini takomillashtirish.....	53
Qahhorova F.Y. Ijtimoiy pedagogikada ishontirish metodlari	60
Rustamova N.Y. Oilada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishlari metodikasi mazmunini tahlil qilish.....	67
Egamberdiyeva G.B. Umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni.....	79

IJTIMOY PSIXOLOGIYA

Arzikulov D.N. Mutaxassislar shaxsiy-kasbiy sifatlarini shakllantirishning axloqiy-psixologik omillari.....	89
Shamsiyev O'.B. Bolalar chapaqayligi xususida	94
Абдуганиева Д.А. Влияние семейного воспитания на формирование эмоционального состояния личности	100
Xudoyorova M.X. Ta'lim psixologiyasining talabalar o'zlashtirishidagi ahamiyati	109
Ashurova A.N. O'smirlik davrida o'z-o'zini anglashni rivojlantirishning psixologik omillari	119
Nazarova M.Y. Xotin-qizlarga nisbatan kiberzo'ravonlik: sabab, oqibat va himoya mexanizmlari.....	127

Nazarova Muharram Yunus qizi,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti
e-mail: nazarovamuharram96@gmail.com

XOTIN-QIZLARGA NISBATAN KIBERZO‘RAVONLIK: SABAB, OQIBAT VA HIMOYA MEKANIZMLARI

Annotatsiya. Ijtimoiy tarmoqlar ommabopligining asosiy sababi – istalgan mavzu bo'yicha muloqotning mavjudligi, masofadan qat'i nazar, istalgan vaqtda ma'lumot va fayllar almashinuvi, turli qiziqish va sohalaridagi guruhlarga birlashish imkoniyatini paydo qilishi. Shu bilan birga uning inson hayotiga xavf darajasi oshib borayotganligini tan olmaslikning ham iloji yo'q. Bugun onlayn tahdidlar, firibgarliklar, kiberzo'ravonlikka uchrayotganlarning asosiy qismini xotin-qizlar tashkil etayotgani esa tadqiqotlar davomida o'z isbotini topgan. Ushbu maqolada xotin-qizlarga nisbatan onlayn tazyiq va zo'ravonliklar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация. Основная причина популярности социальных сетей заключается в том, что они предоставляют возможность общения на любую тему, независимо от расстояния, позволяют обмениваться информацией и файлами в любое время, объединяться в группы по различным интересам и сферам деятельности. В то же время невозможно не признать, что уровень опасности для жизни человека в них возрастает. В ходе исследований было доказано, что женщины составляют основную часть тех, кто сталкивается с онлайн-угрозами, мошенничеством и кибернасилием. В этой статье представлена информация об онлайн-домогательствах и насилии в отношении женщин.

Annotation. The main reason for the popularity of social networks is the availability of communication on any topic, the ability to exchange information and files at any time regardless of distance, and the opportunity to join groups with various interests and fields. At the same time, it's impossible to deny the increasing level of threat these networks pose to human life. Research has proven that women constitute the majority of those facing online threats, fraud, and cyberbullying today. This article provides information on online pressure and violence against women.

Tayanch soʻzlar: kiberzoʻravonlik, kibertaʻqib, kibertuhmat, kiberbulling, kiberbuzgʻunchilik, doksing, dipfeyk, virtual zoʻrlash, nafrat qoʻzgʻatish.

Ключевые слова: кибернасилие, киберпреследование, киберклевета, кибербуллинг, кибердеструктивность, доксинг, дипфейк, виртуальное изнасилование, разжигание ненависти.

Keywords: cyber-violence, cyber-stalking, cyber-defamation, cyberbullying, cyber-disruption, doxing, deepfake, virtual rape, incitement of hatred.

Kirish. Onlayn muloqot bugun yoshidan qatʼi nazar jamiyatda muloqotning eng ommabop shakli sifatida rivojlanib bormoqda. Statistik maʼlumotlarga koʻra, dastlab vujudga kelganida yuzlab insonlarni birlashtirgan ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari profilarning soni 2024-yilda dunyo boʻylab 5 milliarddan oshib, dunyo aholisining 62,3 %iga tenglashgan¹. Shu bilan birga uning insoniyatga xavfi ham kuchayib borayotgani hech kinga sir emas. Kiberzoʻravonlik ana shunday xavfdan biri boʻlib, uning har xil turlari yuzaga kelayotgani ham bu muammoning qanchalik xavfliligini koʻrsatadi. Bu ijtimoiy zoʻravonlikning yangi turi boʻlib, anʼanaviy zoʻravonlik turlariga nisbatan xavfliroq va uning oldini olish hamda bartaraf etish ancha mushkul hisoblanadi.

Maqsad va uni asoslash. Onlayn zoʻravonlik – axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (mobil telefonlar, internet, ijtimoiy tarmoqlar, kompyuter oʻyinlari, qisqa xabarlar, elektron pochta va hokazo) yordamida sodir etiladigan, qoʻllab-quvvatlanadigan yoki kuchaytirilgan har qanday zoʻravonlik harakati. Axborot texnologiyalari va Internet tez surʼatlar bilan rivojlanishi natijasida kibertahdid ham ortib bormoqda. Ushbu maqolada kiberzoʻravonlik, uning yuzga kelishi, turlari, kiberzoʻravonlikka uchragan jabrlanuvchilarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hamda himoyalaniş mexanizmlari haqida fikr yuritiladi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Italiya Respublikasi Parlamentining 2017-yildagi 71-sonli Qonunining 1-moddasida kiberzoʻravonlik quyidagicha taʼriflanadi: “Elektron vositalar orqali amalga oshiriladigan har qanday psixologik bosim, tajovuz, taʻqib, tovlamachilik, zarar yetkazish, haqorat, tuhmat, shaxsiy maʼlumotlarni oʻgʻirlash, oʻzgartirish, noqonuniy toʻplash, manipulyatsiya qilish, noqonuniy qayta ishlash yoki tarqatish, shuningdek, gʻarazli hujum yoki masxara qilishga qaratilgan onlayn-kontentni uyushgan va keng koʻlamda tarqatish shakllari”². Statistik maʼlumotlarga koʻra, 2025-

¹ Чуранов Е. Статистика интернета и соцсетей на 2024 год — цифры и тренды в мире и в России. 2024 https://www.web-canape.ru/business/statistika-interneta-i-socsetej-na-2025-god-cifry-i-trendy-v-mire-i-v-rossii/?utm_referrer=https%3A%2F%2Fwww.google.com%2F

² Italy: Regulation for the safeguarding of minors and the prevention and tackling of cyberbullying. <https://www.coe.int/en/web/cyberviolence/italy>

yil yanvar oyining o'zida AQShda 13–17 yoshdagi qizlarning 28,6%i, o'g'il bolalarning esa 24,2 %i kiberzo'ravonlikka duchor bo'lgan. Umr davomidagi ko'rsatkichlarga ko'ra, bu yosh guruhidagi qizlarning 59,2 %i va o'g'il bolalarning 49,5 %i kiberzo'ravonlikka duch kelgan. Qizlar va yosh ayollarning 73 %i istalmaydigan jinsiy mazmundagi kontentni qabul qilgan. O'rta maktab yoshidagi qora tanli kiberzo'ravonlik qurbonlari, qurbon bo'lmaganlarga nisbatan o'z joniga qasd qilishni o'ylash va rejalashtirish ehtimoli deyarli 135 % yuqori. AQShdagi katta yoshlilarning 48 %i X (sobiq Twitter) ijtimoiy tarmog'ida ta'qib qilish jiddiy muammo ekanligini ta'kidlashgan³. Kiberzo'ravonlik – internetda insonlarning sha'ni, qadr-qimmati va obro'siga putur yetkazadigan xatti-harakatlar.

Kiberzo'ravonlik eng ko'p sodir bo'ladigan makonlar:

- Facebook, Instagram, Snapchat va TikTok kabi ijtimoiy tarmoqlar;
- mobil telefon yoki planshetlardagi matn xabarlar va xabar almashish ilovalari;
- Internet orqali tezkor xabar yuborish, to'g'ridan to'g'ri yozishma va onlayn suhbatlar;
- “Reddit” kabi onlayn forumlar, chatlar va xabar almashish platformalari;
- elektron pochta;
- onlayn o'yin hamjamiyatlari.

Kiberzo'ravonlik yuzaga kelishining asosiy sabablari – e'tibor yetishmasligi, o'ziga past baho berish va shaxsning past ijtimoiy mavqeyi. Internet orqali jabrlanuvchini kamsitish orqali shaxs o'zini tasdiqlaydi va o'ziga ishonchli bo'ladi. Keyingi sabab jamiyatdagi beqaror holatdir. Bunda, jinoyatchi qurbon hisobiga o'z mavqeini mustahkamlash yo'lini izlaydi. Kiberzo'ravon shaxslarning o'zlari o'tmishda kiberbulling yoki boshqa jinoyat qurboni bo'lishadi Bu omilning bir ko'rinishi – real hayotda shaxsni ezish va xo'rlash. Bunday ta'sirga uchragan qurbon ko'p hollarda “o'z qobig'iga o'raladi” va real hayotda odamlarga salbiy ta'sir ko'rsata olmaydi. Shu sababli, u Internet orqali harakat qilishni boshlaydi. Kiberzo'ravonlikning 3 ta asosiy omili ajratiladi: jabrlanuvchi, motiv, imkoniyat. Jabrlanuvchi – zo'ravonlik maqsadi, motiv – zo'ravonlikka undovchi jihat, imkoniyat – zo'ravonlik sodir etishning qulay vaqti. Erkaklarga nisbatan ayollar nafaqat kiberzo'ravonlikka ko'proq uchraydi, balki uning natijasida jismoniy, jinsiy, ruhiy yoki iqtisodiy zarar va azob-uqubatlarga olib keladigan jiddiy oqibatlarni boshdan kechirishadi. Kiberzo'ravonlik an'anaviy zo'ravonlikdan ko'ra jismoniy ta'sirga ega

Kiberzo'ravonlik yuzaga kelishining asosiy sabablari – e'tibor yetishmasligi, o'ziga past baho berish va shaxsning past ijtimoiy mavqeyi. Internet orqali jabrlanuvchini kamsitish orqali shaxs o'zini tasdiqlaydi va o'ziga ishonchli bo'ladi.

³ Martin J. Cyberbullying Facts & Statistics (2024). 2024 <https://explodingtopics.com/18>

**Kiberta'qib
(cyberstalking)
– kiberzo'ravon-
likning bir turi
bo'lib, alohida
shaxsni, shaxslar
guruhini yoki
tashkilotni bezovta
qilish, ta'qib
etish maqsadida
Internet yoki
boshqa raqamli
vositalardan
foydalanish.**

emas. Shuning uchun ham kiberhujumlar ko'pincha ayollarga kamroq zarar yetkazadigan ahamiyatsiz virtual hodisalar sifatida qaraladi. UN WOMEN tashkiloti e'lon qilgan statistik ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa Ittifoqidagi har o'nta ayoldan biri 15 yoshidan boshlab kiberzo'ravonlikka duchor bo'lgan. Bunga istalmagani holda jinsiy mazmundagi haqoratli elektron xatlar yoki SMS xabarlar olish, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda noo'rin va haqoratli munosabatlar bilan to'qnash kelish kabi holatlar kiradi. Arab davlatlarida o'tkazilgan mintaqaviy tadqiqot natijalariga ko'ra, 2021-yil davomida mintaqadagi internetdan foydalanuvchi ayollarning 60%i onlayn zo'ravonlikka duchor bo'lgan. G'arbiy Bolqon va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida mintaqada onlayn faol bo'lgan ayollarning yarmidan ko'pi umri davomida texnologiya vositasidagi zo'ravonlikning turli ko'rinishlariga duch kelgan. Ugandada 2021-yilda ayollarning qariyb yarmi (49%) onlayn ta'qib va tazyiqqa uchragani ma'lum qilingan. Koreya Milliy Inson Huquqlari Komissiyasi tomonidan 2016-yilda o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, ayollarning 85%i internetda haqoratomuz ifodalangan fikrlarga duch kelgan. COVID-19 pandemiyasi davrida xotin-qizlarga nisbatan kiberta'qiblar va zo'ravonliklar kuchaygan. Kiberzo'ravonliklar sonining ortib borishining asosiy sabablaridan biri, uni aniqlash va isbotlash murakkab, shuningdek, bunday holatlar haqida kamdan kam holatlarda xabar qilinadi. Onlayn zo'ravonliklar bir necha shakllarda uchraydi: kiberta'qib, kibertuhmat, kiberbulling, kiberbuzg'unchilik, doksing, dipfeyk, virtual zo'rqlash, nafrat qo'zg'atish.

Kiberta'qib (cyberstalking) – kiberzo'ravonlikning bir turi bo'lib, alohida shaxsni, shaxslar guruhini yoki tashkilotni bezovta qilish, ta'qib etish maqsadida Internet yoki boshqa raqamli vositalardan foydalanish. Kiberta'qib umumiy stalking (ingl cyberstalking – biror shaxs yoki guruh tomonidan boshqa shaxsga nisbatan istalmagan yoki takroriy kuzatish, ta'qib) huquqbuzarligining shakli bo'lib, kibermakonda sodir etilishi, Internet, ijtimoiy tarmoqlar yoki boshqa raqamli vositalar orqali sodir bo'lishi bilan xarakterlanadi. Kiberta'qib yolg'on ayblovlar yoki ma'lumotlar tarqatish, tuhmat, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash yoki urinish, tahdid, vandalizm, jinsiy aloqaga chorlash, qo'rqitish yoki bezovta qilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni to'plash kabi xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi.

Kibertuhmat harakat jabrlanuvchiga shantaj qilish va uning shaxsiy ma'lumotlari yoki o'zgartirilgan suratlarini oshkor etish orqali obro'sini to'kishni o'z ichiga oladi. Bu ko'pincha tovlamachilik va jabrlanuvchidan jinsiy xizmatlar talab qilish bilan bog'liq bo'ladi.

Kiberbulling (cyberbullying) – raqamli texnologiyalardan foydalanib qo'rqitish va ta'qib qilish. U ijtimoiy tarmoqlar, xabar

almashish ilovalari, o'yin platformalari va mobil telefonlarda sodir bo'lishi mumkin. Bu takrorlanuvchi hodisalar bo'lib, ularning maqsadi ta'qib qilinayotgan shaxslarni qo'rqitish, g'azablantirish yoki sharmanda qilishdan iborat.

Kiberbuzg'unchilik – jinoyatchilarning turli usullar bilan jabrlanuvchining shaxsiy ma'lumotlariga ruxsatsiz kirish maqsadiga erishishga urinish harakati. Masalan, qurbonni shubhali URL manzillarni bosishga undash orqali, uning qurilmasiga yashirin tarzda ilovalarni o'rnatish va yuklab olish imkoniyatini yaratish. Jinoyatchilar bu ma'lumotlardan shantaj, kiberta'qib, bank operatsiyalarini amalga oshirish va shunga o'xshash turli jinoyatlar sodir etish uchun foydalanadilar.

Doksing – shaxsning roziligisiz uning shaxsiy ma'lumotlarini o'rganish, ulardan foydalanish va oshkor qilish, qurbonni fosh etish va sharmanda qilish. Bu ma'lumotlar, odatda, qurbonlarning joylashuvini aniqlashga imkon bergani sababli, doksing haqiqiy hayotdagi zo'ravonlikning dastlabki belgisi bo'lishi mumkin. Doksing ko'pincha yaqin munosabatdagi sheriklar tomonidan sodir etiladigan zo'ravonlik holatlarida uchraydi.

Dipfeyk – (ingl. Deepfake, deep learning “chuqur o'rganish” + fake “soxta”). Sun'iy intellekt yordamida yaratilgan, asl ko'rinishga ega bo'lib, odamlar haqiqiy hayotda hech qachon aytmagan va qilmagan narsalarni gapirayotgan yoki bajarayotgandek tasvirlanadigan yoki sun'iy audio yoki vizual materiallar “dipfeyk” deyiladi. Ayollar va qizlarning aksariyat dipfeyklari intim fotosuratlar yoki jinsiy mazmundagi sahnalarni aks ettiradi va ularni yaratish hamda tarqatishga rozilik olinmagan holda, kattalar uchun mo'ljallangan ko'ngilochar platformalar va saytlarga joylashtiriladi.

Virtual zo'rlash – shaxsning avatari (yoki uning raqamli tasviri) boshqa avatarlar tomonidan jinsiy zo'ravonlikka uchragan soxta holatini tarqatish. Kiberjinoyatning bu turi “Metaolam” kabi uch o'lchovli virtual dunyolarda paydo bo'ldi.

Virtual vauyerizm – qiziqarli obyektlarni kuzatuv kameralari yozuvlari orqali o'zlarining buzuq g'oyalarini amalga oshirish maqsadida kuzatish yoki shunchaki inson haqidagi ommaviy mavjud ma'lumotlar asosida uni o'rganish hodisasi. Bu jarayon kuzatuvchining o'z maqsadlarini ro'yobga chiqarish uchun boshqalarning hayotiga yashirincha aralashishini anglatadi. Bunda kuzatuvchi o'z qiziqishlarini qondirish maqsadida boshqalarning shaxsiy hayotini kuzatib, ularning ma'lumotlarini to'playdi va tahlil qiladi. Roziliksiz intim tasvirni suiiste'mol qilishning turli shakllarini ifodalash uchun umumiy atama ham hisoblanadi. Bu hech narsadan shubhalanmagan ayollarni jamoat yoki shaxsiy joylarda yashirincha va kelishilmagan holda suratga olishni anglatadi.

*Virtual zo'rlash
– shaxsning
avatari (yoki uning
raqamli tasviri)
boshqa avatarlar
tomonidan jinsiy
zo'ravonlikka
uchragan soxta
holatini tarqatish.
Kiberjinoyatning
bu turi Metaolam
kabi uch o'lchovli
virtual dunyolarda
paydo bo'ldi.*

*Kiberzo‘ravonlik,
birinchidan,
inson huquqlarini
buzishning
bir shaklidir.
Kiberbulling
harakatlari
xalqaro va milliy
qonunchilik bilan
kafolatlangan
ko‘plab asosiy
inson huquqlarini
poymol qiladi.
Shuningdek,
shaxsiy hayot
daxlsizligini
buzadi.*

Nafrat qo‘zg‘atish – Internetda kurakda turmas, nafsoniyatga teguvchi so‘zlar bilan haqorat qilgan holda nafratni avj oldirish. Bu kabi noxush izohlar, asosan, ijtimoiy tarmoqlarda e‘lon qilinadigan va tarqatiladigan materiallar ostida qoldirilib, yomon niyatli shaxs ayollar yoki qizlarning jinsi yoki boshqa omillari (masalan, irqi, yoshi, nogironligi, jinsiy moyilligi, etnik kelib chiqishi, millati, dini yoki kasbi) tufayli yomon ko‘radi.

Kiberzo‘ravonlik insoniyatga ijtimoiy, iqtisodiy ruhiy zarba beradi. Kiberzo‘ravonlik jamiyatdagi an‘anaviy zo‘ravonlik shakllariga qaraganda tezroq va keng ko‘lamli salbiy oqibatlariga olib keladi, chunki kiberzo‘ravonlik sodir etuvchi shaxs(lar) ko‘pincha o‘z shaxsiyatlarini yashiradilar va bir vaqtning o‘zida ko‘plab qurilma hamda platformalardan foydalanib harakat qiladilar. Bu, o‘z navbatida, zo‘ravonlik hodisalari qayta sodir bo‘lish ehtimolini oshiradi. Bundan tashqari, kiberzo‘ravonlik harakatlari ko‘pincha onlayn hamjamiyatda qasddan yoki beixtiyor ravishda tarqaladi va natijada jabrlanuvchi “nafrat va haqorat yomg‘iri” ostida qoladi.

Kiberzo‘ravonlik, birinchidan, inson huquqlarini buzishning bir shaklidir. Kiberbulling harakatlari xalqaro va milliy qonunchilik bilan kafolatlangan ko‘plab asosiy inson huquqlarini poymol qiladi. Shuningdek, shaxsiy hayot daxlsizligini buzadi. Bunda, shaxs haqidagi ma‘lumotlar uning roziligisiz zararli maqsadlarda kibermakonda tarqatiladi. Internetda shaxsiy hayot haqida, ayniqsa, maxfiy ma‘lumotlarning tarqalishi jabrlanuvchini internet hamjamiyati tomonidan g‘iybat, tuhmat yoki haqoratlar nishoniga aylantirib qo‘yishi mumkin, bu esa ko‘pincha har bir kishining qalbida chuqur va o‘chmas ruhiy jarohatlar qoldiradi.

Ikkinchidan, kiberzo‘ravonlik insonning o‘z sha‘ni va obro‘sini himoya qilish huquqini buzadi. Masalan, shaxsni haqoratlovchi, kamsituvchi, tuhmat qiluvchi, obro‘sizlantiruvchi yoki yolg‘on ma‘lumotlar jabrlanuvchining sha‘ni va obro‘siga jiddiy zarar yetkazishi mumkin, ayniqsa, jabrlanuvchining javob berish imkoniyati yo‘q yoki juda cheklangan bo‘lsa. Ko‘p hollarda jabrlanuvchilar nafaqat obro‘ga putur yetishidan aziyat chekadilar, balki jiddiy va uzoq muddatli ijtimoiy hamda kasbiy zarar ham ko‘radilar.

Uchinchidan, kiberqo‘rqitish ko‘pincha shaxsiy ma‘lumotlarga ruxsatsiz kirishni o‘z ichiga oladi: elektron pochta, telefon va onlayn hisoblarni buzish, shuningdek, jabrlanuvchining onlayn faoliyatini kuzatish uchun josuslik dasturiy ta‘minotidan foydalanish. Bunday xatti-harakatlar har bir insonning shaxsiy ma‘lumotlarini himoya qilish huquqini to‘g‘ridan to‘g‘ri buzadi.

Bundan tashqari, kengroq ma‘noda kiberzo‘ravonlik insonning yashash va sog‘liqqa bo‘lgan ajralmas huquqlarini ham buzadi.

Kiberzo‘ravonlik undan jabrlangan xotin-qizlarning ruhiy salomatligiga jiddiy ta‘sir o‘tkazadi va ularni inqiroz, xavotir, bosim va hatto tushkunlik holatiga tushiradi. Bu og‘ir holatlarda jabrlanuvchining o‘z joniga qasd qilishiga olib kelishi mumkin.

Kiberzo‘ravonlik qurbonlari g‘azab, uyat, aybdorlik, tashvish, xafalik, bezovtalik kabi turli xil salbiy his-tuyg‘ularni boshdan kechiradilar, bu esa xavotir buzilishi va tushkunlik kabi jiddiy ruhiy oqibatlariga sabab bo‘lishi mumkin.

Kibertajovuz qurbonlarida ko‘pincha o‘zini past baholash muammolari paydo bo‘ladi va o‘ziga bo‘lgan ishonch darajasi pasayadi. Ba‘zi qurbonlar o‘zlarini sevgi, do‘stlik yoki muvaffaqiyatga loyiq emas deb hisoblashlari mumkin. Ayrim jabrlanuvchilar esa sodir bo‘lgan voqeada o‘zlarini ayblashlari va bunga loyiq ekanliklarini o‘ylashlari mumkin. Keyinchalik, jabrlanuvchida o‘z joniga qasd qilish fikrlarini uyg‘otishi mumkin.

Ba‘zi hollarda kiberta‘qib jismoniy oqibatlariga ham olib kelishi mumkin. Masalan, qurbonlar haqiqiy hayotda ham tahqirlash yoki hujumlar nishoniga aylanishlari mumkin.

Onlayn zo‘ravonlik qurbonlarida diqqatni jamlash qobiliyati susayishi kuzatiladi.

Kiberzo‘ravonlikning oldini olishda eng asosiy mezonlardan biri unga qarshi huquqiy me‘yoriy bazani kuchaytirishdir.

2021-yilda Yevropa Kengashi tomonidan mazkur tashkilotning barcha a‘zo davlatlari uchun xotin-qizlarni onlayn zo‘ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan GREVIO 1-sonli umumiy tavsiyalari ishlab chiqildi hamda raqamli muhitda ayollar va qizlarga nisbatan zo‘ravonlik genderga asoslangan zo‘ravonlikning yana bir ko‘rinishi, ular hayotning barcha jabhalarida doimiy ravishda duch keladigan zo‘ravonlikning davomi ekanligini tan olish lozimligi belgilab qo‘yildi. Shuningdek:

- Internetda va undan tashqarida genderga asoslangan zo‘ravonlik, haqorat (*nima ma’noda kelgan?*) va kamsitishning oldini olish hamda ularga qarshi kurashish uchun mustahkam, samarali qo‘llaniladigan qonunchilik bazasining mavjudligini ta‘minlash;

- har qanday shakldagi raqamli zo‘ravonlikni to‘xtatish uchun zarur bo‘lgan qonunchilik bazasining eng muhim qismlarini yakunlash bo‘yicha choralar ko‘rishni jadallashtirish;

- tergov o‘tkazish, tajovuzga uchragan ayollarni himoya qilish va aybdorlarni javobgarlikka tortish;

- huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini raqamli zo‘ravonlik bo‘yicha jinoyat ishlarini tergov qilish va tayyorlashga yanada samaraliroq o‘qitish, ularga mutaxassislar yordamini ta‘minlash;

Kibertajovuz qurbonlarida ko‘pincha o‘zini past baholash muammolari paydo bo‘ladi va o‘ziga bo‘lgan ishonch darajasi pasayadi. Ba‘zi qurbonlar o‘zlarini sevgi, do‘stlik yoki muvaffaqiyatga loyiq emas deb hisoblashlari mumkin.

- Internetda ayollarga, ayniqsa, jamoat arboblarga qarshi qaratilgan zararli tuhmat kampaniyalariga qarshi kurashish;
- ayollarga suiiste'mollar haqida xabar berish va zararli materiallarni olib tashlashga erishish imkonini beruvchi qulay, xavfsiz va ixtisoslashtirilgan mexanizmlar mavjudligini kafolatlash;
- kiberzo'ravonlikka qarshi kurashish uchun kibertexnologiyalarni ishlab chiquvchi xususiy subyektlar bilan kuchlarni birlashtirish va faoliyatni muvofiqlashtirish;
- so'z erkinligi sohasidagi standartlar va sud amaliyoti talab qilganidek, ijtimoiy tarmoqlar tomonidan noqonuniy kontentni bloklash bo'yicha majburiyatlarning samarali bajarilishiga erishish;
- jamiyatda ushbu muammoning ko'p qirrali ekanligi to'g'risidagi xabardorlikni oshirish, odamlarni internetdagi zo'ravonlik bilan bog'liq xatarlar haqida ogohlantirish hamda maktablarda va undan tashqarida bolalarni ularning raqamli makondagi huquqlari hamda xavf-xatarlari to'g'risida ma'lumot berish;
- raqamli muhitda hozircha hech qanday qarshilikka duch kelmayotgan turli xil mavjud va endigina paydo bo'layotgan xulq-atvor va zo'ravonlik harakatlarini diqqat bilan kuzatib borishni davom ettirish.

Yakuniy qism. Kiberzo'ravonlik makon va zamon bilan chegaralanmaydi. Bugun global miqyosda kechayotgan kiberzo'ravonlikni bartaraf etishda xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish juda muhimdir. Ayollar va qizlarga Internetdagi zo'ravonlik haqida xabar berish va yordam olish imkoniyatini ta'minlash, Internetda zo'ravonlikka duchor bo'lgan ayollarga yordam ko'rsatish bo'yicha chora-tadbirlar va tashabbuslarni ishlab chiqish, jumladan, huquqiy va psixologik maslahatlar berish orqali ayollarning onlayn va oflayn muhitdagi xavfsizligini oshirish uchun raqamli vositalarni yaratishni qo'llab-quvvatlashni yo'lga qo'yish kiberxavfsizlikni ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Цифры и тренды в мире и в России. https://www.web-canape.ru/business/statistika-interneta-i-socsetej-na-2025-god-cifry-i-trendy-v-mire-i-v-rossii/?utm_referrer=https%3A%2F%2Fwww.google.com%2F
2. Italy: Regulation for the safeguarding of minors and the prevention and tackling of cyberbullying. <https://www.coe.int/en/web/cyberviolence/italy>
3. Cyberbullying Facts & Statistics (2024). <https://explodingtopics.com/18>
4. Кибернасилие и права человека. <https://www.vietnam.vn/ru/>
5. Әйелдерге қарсы киберқылмыстар және олардың санаттары. <https://drfl.kz/ru/cybercrimes-against-women>
6. GREVIO General Recommendation No. 1 on the digital dimension of violence against women. www.coe.int/conventionviolence

“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬЯ И ГЕНДЕР»
“FAMILY AND GENDER” RESEARCH INSTITUTE

**OILA, XOTIN-QIZLAR VA
IJTIMOIY HAYOT**
СЕМЬЯ, ЖЕНЩИНЫ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ
FAMILY, WOMEN AND SOCIAL LIFE

elektron ilmiy jurnal
электронный научный журнал
electronic scientific journal

1/2025

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.
“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy
masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni
tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации»
№ 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года.
Журнал “Семья, женщины и общественная жизнь” считается продолжение журнала “Социальное управление”.

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных,
фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных
вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and
Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.
The journal «Family, women and social life» is a continuation of the journal «Social management».

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific
and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions
of makhalla, family and gender equality.*

MUASSIS:

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Sobirova E.,
Jabborov U., E.Sultonov**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizayner: **Yakubov O.**

*Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 02.03.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 11,6.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,
M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.

“Pages Print” МЧЖ bosmaхонасида chop etildi.

Тошкент, Олмазор тумани, Чимбой кўчаси, 8-уй.